
Farg'ona shahrida navbatdagi press-tur va matbuot anjumani o'tkazildi ***Ommaviy axborot vositalari xodimlari, boshqarmalarning axborot xizmati rahbarlari hamda blogerlar uchun Farg'ona shahrida matbuot anjumani hamda press-tur uyushtirildi. Press-tur ishtirokchilari shahrimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Eko shaharda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdilar. Viloyat ekologiya boshqarmasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan press-tur davomida mutaxassislar tomonidan kerakli ma'lumotlar berildi. Shuningdek, mehmonlar "Yangi O'zbekiston bog'i"da manzarali daraxt ko'chatlarini ekish jarayonlarida ham ishtirok etishdi. Shundan so'ng, jurnalist va blogerlar uchun shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari ishtirokida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda shahar hokimi 2023 yilning 1-mavsumida "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida g'olib bo'lgan takliflar bo'yicha qilinayotgan ishlar bo'yicha hamda 2-mavsumdagi ovoz berish jarayonlari haqida ma'lumotlar berildi. Matbuot anjumanida jurnalist va blogerlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.***

2023-09-07 08:35:07